

SUN'Y INTELEKTNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

Murodova Aziza XXX

Navoiy viloyati Nurota tumani

27-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining yoshlar ongiga ta'siri, uning psixologik, ijtimoiy va ta'limiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanishning ijobiy va salbiy oqibatlari hamda raqamli savodxonlikni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, yoshlar, ong, psixologiya, raqamli texnologiyalar, ta'lim, axborot, motivatsiya

KIRISH

Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari hayotning barcha sohalariga kirib bormoqda. Ta'lim, tibbiyot, aloqa va kundalik hayotda SI tizimlaridan keng foydalanilmoqda. Bu jarayon ayniqsa yoshlar ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Sun'iy intellekt yoshlarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi. Masalan, onlayn tarjimonlar, virtual yordamchilar va ta'lim platformalari o'quvchilarga tez va qulay ma'lumot olish imkonini beradi. Psixologik jihatdan SI texnologiyalari yoshlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishi mumkin. Tezkor axborot olish imkoniyati ularning bilimga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektning salbiy ta'sirlari ham mavjud. Tayyor javoblarga haddan tashqari tayanish yoshlarning mantiqiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini pasaytirishi mumkin.

Yoshlar ongiga yana bir ta'sir — bu raqamli qaramlikning kuchayishi. Texnologiyalarga haddan tashqari bog'lanish real hayotdagi muloqotni kamaytiradi va ijtimoiy moslashuvga salbiy ta'sir qiladi. Sun'iy intellekt asosidagi kontentlar yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri tanlangan axborot ijobiy

rivojlanishga xizmat qiladi, noto'g'ri axborot esa chalkashlik keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli raqamli savodxonlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar axborotni tahlil qilish, tekshirish va tanlash ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Oila va maktab ham bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar va o'qituvchilar yoshlarni SI texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishga yo'naltirishi zarur.

Maktab psixologi esa yoshlarning texnologiyalarga munosabatini o'rganib, ularni sog'lom foydalanish madaniyatiga o'rgatishi lozim. XXI asr texnologiyalar asri sifatida e'tirof etilib, bu davrda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib bormoqda. Sun'iy intellektning tizimlari ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish, iqtisodiyot hamda kundalik hayotdagi boshqa bir qator sohalarda keng qo'llanilmoqda. Natijada inson faoliyatining ko'plab jarayonlari avtomatlashtirilmoqda va yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoqda.

Biroq sun'iy intellektning jadal rivojlanishi nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarda, balki inson psixikasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa yoshlar orasida texnologiyalardan keng foydalanish ularning tafakkuri, xulq atvori, va emotsional holatiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Psixologiyada inson va texnologiya o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli sun'iy intellektning inson psixikasiga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi sun'iy intellekt texnologiyalarining inson psixikasiga ta'sirini psixologik nuqtai nazardan tahlil qilishdan iborat.

Sun'iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining inson tafakkuriga xos bo'lgan jarayonlarni, ya'ni o'rganish, tahlil qilish, muammo yechish va qaror qabul qilish kabi faoliyatlarni amalga oshirish qobiliyatidir. Bu tushuncha ilk bor amerikalik olim John McCarthy tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

Sun'iy intellekt texnologiyalari hozirgi kunda inson faoliyatini yengillashtirish, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va murakkab jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini bermoqda.

Sun'iy intellektning inson psixikasiga ta'siri. Kognitiv jarayonlarga ta'sir.

Sun`iy intellekt insonning fikrlash, xotira va tafakkuriga ta`sir ko`rsatadi. Tezkor axborot olish imkoniyati insonning bilim olish jarayonini tezlashtiradi. Biroq ayrim hollarda texnologiyalarga ortiqcha tayanish mustaqil fikrlashning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Emotsional holatga ta`siri. Raqamli texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish insonlarda charchoq, stress va emotsional zo`riqish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim sun`iy intellekt tizimlari insonlarga psixologik yordam ko`rsatishda ham qo`llanilmoqda.

Inson faoliyatiga ta`siri. Sun`iy intellekt inson faoliyatining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Masalan, ta`lim jarayonida aqlli tizimlar orqali individual o`qitish usullari qo`llanilmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish va biznes sohalarida ham sun`iy intellekt texnologiyalari ish jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Sun`iy intellektning qanday turlari mavjud ?

“ Sun`iy intellekt” asosiy darajada 3 turga bo`linadi ;

1. Tor sun`iy intellekt – hozir ishlayotgani. Bu sun`iy intellektning eng keng tarqalgan va q`ollaniladigan turi. U bitta aniq masalani yoki cheklangan masalalar to`plamini hal qiladi. Buni u yaxshi bajaradi, lekin o`z dasturidan tashqari hech narsa qila olmaydi.

2. Umumiy AI (AGI) – hammaning intilayotgani. Bu yanada yuqori darjadagi maqsad. Umumiy sun`iy intellekt har qanday intellectual masalalarni inson kabi yaxshi hal qila olishi kerak. Va bu uning har biriga dasturlashtirilgani uchun emas, balki u o`zi o`rganishi, xulosalar chiqarish, bilimlarni bir sohadan boshqasiga o`tkazishi tufaylidir.

3. Superintellekt – bizdan aqlliroq sun`iy intellekt. Bu hozircha fantastika darajasida, lekin jiddiy ilmiy mulohazalar ham mavjud. Superintellekt – bu taffakurning barcha parametrlari; mantiq, intuitsiya, ijodkorlik, ma`lumotlarni qayta ishlash tezligi bo`yicha insondan ustun bo`lgan sun`iy intellektidir.

Sun`iy intellekt bo`yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar va tajribalar.

1. Jon Makkarti – uzoq yillar davomida Stenford universitetida faoliyat yuritgan. Uning ilmiy hissasi LISP dasturlash tilini yaratgan, sun`iy intellekt bo`yicha dastlabki ilmiy tadqiqotlarni boshlab bergan, aqlli tizimlar yaratish nazariyasini ishlab chiqqan.

2. Alan Turing – ingliz matematigi, u informatikani rivojlanishiga katta hissa qo`shgan. 1950 yilda kompyuterni ongliligini tekshiruvchi Turing testini ishlab chiqqan.

3. Gerbart Saymon – suniy intellekt, iqtisodiyot va kognitiv psixologiya sohasidagi mashhur olim. U inson tafakkuri va qaror qabul qilish jarayonlarini o`rganishga katta hissa qo`shgan. Shu bilan birga sun`iy intellekt yordamida inson tafakkurini modellashtirish g`oyasini ishlab chiqqan.

4. Allen Newell – kognitiv psixologiya va sun`iy intellekt sohasidagi amerikalik olim. U IPL dasturlash tilini va 2 ta eng qadimgi sun`iy intellekt dasturlarini – “Mantiq nazariyasi mashinasi”ni (1956) va “Umumiy muammolarni hal qiluvchi” ni ishlab chiqishda ishtirok etgan.

Hozirgi kunda sun`iy intellekt texnologiyalarining keng qo`llanilishi bilan bir qatorda ayrim psixologik muammolar ham yuzaga kelmoqda. Jumladan;

- Texnologiyalarga qaramlik
- Axborot ortiqchaligi
- Ijtimoiy muloqotning kamayishi
- Kasbiy xavotir va kelajak haqida noaniqlik.

Muammolarni hal qilish yo`llari. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralarni qo`llash mumkin;

- Texnologiyalardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish
- Yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish
- Real ijtimoiy muloqotni rivojlantirish.

So`nngi yillarda O`zbekistonda ham sun`iy intellekt yo`nalishida tizimli islohotlar amalga oshirilib, natijada mamlakatimiz sun`iy intellektni joriy etish bo`yicha yuqori natijalarga erishmoqda. Xususan, “Universitet – sanoat – xalqaro hamkorlik” loyihasi taqdimot qilindi. Ushbu tashabbus doirasida sun`iy intellekt savodxonligini oshirish, pedagog kadrlarning malakasisini yuksaltirish, sohaviy darsliklarni ishlab chiqish va

sanoat uchun zamonaviy mutaxassislar tayyorlash ishlari belgilandi. Shuningdek, taqdim etilgan “ AI Maktab” platformasi esa yoshlarni raqamli ko`nikmalar hamda zamonaviy kasblarga o`rgatishga qaratilgan. Platforma orqali ishtirokchilar virtual yordamchi, raqamli marketolog, AI-kontent yaratuvchi, biznes- analitik kabi o`nlab yo`nalishlarda masofaviy ta`lim oladi. E`tiborlisi, bu kabi dastur va loyihalar kichik jamoalardan tortib, yirik tashkilotlargacha ish samaradorligini oshirish, daromad manbalarini kengaytirish va intellectual mehnatni yengillashtirishda katta imkoniyat yaratmoqda.

Sun`iy intellekt zamonaviy jamiyat rivojining muhim omillaridan biri hisoblanadi. U inson faoliyatini yengillashtirish, bilim olish imkoniyatini kengaytirish va turli jarayonlarni samarali tashkil etishda muhim rol o`ynaydi. Shu bilan birga , sun`iy intellekt texnologiyalaridan haddan tashqari foydalanish inson psixikasiga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Shu sababli texnologiyalardan ongli va muvozanatli foydalanish muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, sun`iy intellekt insonning kognitiv jarayonlarini tezlashtirish, axborotni tez va samarali qayta ishlash, qaror qabul qilishni osonlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, mustaqil fikrlash qobiliyatini kamaytirishi, stress va charchoqni kuchaytirishi, real ijtimoiy muloqotni cheklashi ham mumkin. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, insonlarning texnologiyalardan samarali foydalanishini rag`batlantirish, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat ko`nikmalarini rivojlantirishga yo`naltirilgan pedagogik va psixologik choralar zarur. Shu orqali sun`iy intellektning ijobiy ta`sirini maksimal darjada oshirish va salbiy ta`sirini minimallashtirish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sun`iy intellekt yoshlar ongiga ham ijobiy, ham salbiy ta`sir ko`rsatadi. Uni to`g`ri va me`yorida qo`llash yoshlarning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimova V.M. Psixologiya – Toshkent; O`qituvchi 2018
2. G`oziyev E.G`. Umumiy psixologiya – Toshkent , 2019
3. Makkarti J . Sun`iy intellekt nima ? Stenford universiteti- 2007

4. Tyuring A. Hisoblash mashinalari va intellekt . London – 1950
5. President.uz – <https://president.uz>
6. Wikipedia – <https://uz.wikipedia.org>